

**O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI G'AZNA IJROSI MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Normurodov Sherzod Sa'dulla o'g'li

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy sharoitda davlat byudjeti g'azna ijrosini tashkil etishning nazariy asoslari, g'aznachilik faoliyatini tadbiq etish va rivojlanish tarixi, samarali byudjet siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali byudjetning g'azna ijrosi mexanizmlaridan maqsadga muvofiq foydalanish imkoniyatlari, davlat moliyasini boshqarish va davlat mablag'larining maqsadli ishlatalishi ustidan ta'sirchan nazoratni tashkil qilish masalalari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *iqtisodiyot, moliya, g'azna, davlat budjeti, davlat budgetini boshqarish, g'aznachilik, budget mablag'lari;*

Kirish

Ma'lumki taraqqiyotimizning bugungi sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotida sodir bo'layotgan tarkibiy o'zgarishlar, butun moliya tizimida, uning markaziy bo'g'ini bo'lgan davlat moliyasida amalga oshirilayotgan islohotlar davlat moliyasini boshqarish masalalarida muayyan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish zarurligini talab qilmoqda. Bunday sharoitda nafaqat davlat moliysi haqidagi ma'lum nazariy bilimlarga ega bo'lgan, balki davlat byudjeti g'azna ijrosi jarayonlarida vujudga keladigan holatlarni tushuna oladigan, byudjet ijrosi ishtirokchilari bo'lgan moliya organlari, g'aznachilik bo'linmalari, byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar amaliy faoliyatini samarali tashkil qila oladigan, davlat mablag'larini samarali boshqarishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qila oladigan zamonaviy mutaxassislar tayyorlash birinchi darajali ahamiyatga egadir. Shu sababli davlat moliysi uchun tashabbuskor, ijodiy fikrlaydigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashda byudjet-moliya va byudjetning g'azna ijrosi nazariyasi va amaliyotini o'rganishga muhim o'rinn beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metologiya

Hech kimga sir emaski, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida davlat moliysi tizimida chuqur iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar, qator vazifalar bilan birlgilikda, davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Bunda davlat moliyasini boshqarish shakllari va usullarini takomillashtirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari, elektron hisoblash mashinalari va boshqa texnik vositalar yordamida axborotni jamlash, qayta ishslash, uzatish qoidalari va usullarini o'zlashtirish asosida axborotlashtirishni yanada rivojlantirish talab etiladi. Byudjet tizimi mamlakat moliya tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, uning muvaffaqiyatli tashkil etilishi samarali byudjet siyosatining asosini tashkil etadi.

Bu kabi davlat moliyasi tizimidagi tub islohotlar natijasida byudjetning g'azna ijrosiga o'tilishi shuningdek, byudjetning o'rta muddatli istiqbolini belgilashga o'tish chora-tadbirlari mamlakatimizda izchillik bilan amaliyotga joriy etilmoqda. Jahon andozalari va xalqaro byudjet amaliyotining yangi qat'iy talablari va mezonlari asosida davlat byudjetining o'rta muddatli istiqbolini belgilash tizimiga o'tishning joriy etilishi, rivojlangan mamlakatlarda samarali amal qilayotgan natijaviylikka asoslangan byudjetlashtirish amaliyotga joriy etilishi byudjet tizimi oldiga ham ulkan vazifalar qo'yadi.

Davlat moliyasini boshqarishdagi islohotlar sharoitida umumdavlat moliya tizimining bosh bo'g'ini – davlat byudjetini boshqarish, byudjet jarayonini tashkil etish tizimidagi islohotlar, xususan byudjet ijrosida cassali tizimdan jahon amaliyotida sinalgan va o'zining ijobiy natijalarini bergen davlat byudjetining g'azna ijrosiga o'tish amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy mamlakatlar bozor mexanizmlarini ko'r-ko'rona, sun'iylik bilan tadbiq etib bo'lmaydi, chunki jamiyat a'zolari o'rtasida shunday an'anaviy ierarxik munosabatlar tizimi shakllanganki, ularni mensimaslik, keskin qarorlar qabul qilish chog'ida ularni e'tiborga olmaslik turli nohush holatlarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiyotni boshqarishning jahon amaliyotida tan olingan bir qator mexanizmlarini iqtisodiyijtimoiy rivojlanish sharoitlarimizga tegishli tarzda moslashtirgan holda qo'llash va ijobiy foydalanish maqsadga muvofiqdir. Byudjet mablag'laridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlovchi shunday mexanizmlardan biri – davlat byudjetining g'azna ijrosidir.

Muhokama

Davlat byudjeti g'azna ijrosi mexanizmini takomillashtirish O'zbekiston davlatining iqtisodiy siyosatini rivojlantirishning muhim qismini tashkil etadi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun bir necha muhim chora-tadbirlar ko'rish mumkin:

- Moliyalashtirishning o'rnatilishi: O'zbekiston davlat byudjetining g'azna qismini takomillashtirishning bir qismi moliyalashtirishni o'z ichiga oladi. Bu moliyalashtirishning iloji boricha va o'zining afzalliklari bo'lishi kerak. Shuningdek, soliq tizimida kengaytirishlar va soliqqa tortishlar kiritilishi mumkin.
- Ishlab chiqarish sektorini rivojlantirish: Mamlakatda ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish va eksport potentsialini oshirish uchun iqtisodiy reformalar va investitsiyalar kiritilishi kerak. Bu, g'azna ijrosini oshirishga yordam beradi.
- Boshqaruv tizimini yanada rivojlantirish: Davlat tashkilotlari va tadbirkorlik sohasidagi boshqaruv tizimini yanada rivojlantirish, jarayonlarni oddiyroq va samaraliroq qilishda yordam beradi.
- Investitsiyalar va yig'ilgan moliyalar: G'azna ijrosini oshirishning iloji qismlarini rivojlantirish uchun investitsiyalar va yig'ilgan moliyalar muhimdir. Bu moliyalar ilg'or investitsiya loyihalariga, yangi texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashga va yangi sohalarni rivojlantirishga yonadi.

□ Soliq tizimini yanada sodda va barqarorlashtirish: Soliq tizimining sodda va barqaror bo'lishi g'azna ijrosini oshirishga yordam beradi. Soliq tizimida oddiy, aniq va aniq talablar, shuningdek, soliq daromadlari kiritishning so'nggi texnologiyalar bilan avtomatlashtirilishi lozim.

□ Korruptsiyani kamaytirish va ishlab chiqarish tarmoqlarini sodda qilish: Korruptsiyani kamaytirish va ishlab chiqarish tarmoqlarini sodda qilish g'azna ijrosini oshirishning muhim qismlaridan biri. Yuridik va boshqaruv tizimlarini yanada ochiq va transparens qilish muhimdir.

□ Eksport potentsialini oshirish: Eksportning rivojlanishi O'zbekistonning g'azna ijrosini oshirish uchun muhimdir. Yangi eksport bozorlarini olib kelish, eksportni oshirish uchun tez-tez to'g'ridan investitsiyalar kiritish, va eksport mahsulotlari sifatini oshirish muhimdir.

Bu jarayonlar birlashtirilgan holda O'zbekistonda davlat byudjeti g'azna ijrosini takomillashtirish uchun kerak bo'lgan qadamalar bo'lishi mumkin. Har bir chora-tadbirning amalga oshirilishining vaqtida kuzatilishiga e'tibor berish lozim, va davlat va tadbirkorlik sektorlarining ishtirokida amalga oshiriladigan jamoat tarmoqlari yaratish va rivojlantirishning muhim qismi bo'ladi.

Natijalar

Zamonaviy jamiyatimiz taraqqiy etayotgan bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasi tizimida chuqur iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar, qator vazifalar bilan birgalikda, davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Bunda davlat moliyasini boshqarish shakllari usullarini takomillashtirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va boshqa texnik vositalar yordamida axborotni jamlash, qayta ishlash, uzatish qoidalari va usullarini o'zlashtirish asosida axborotlashtirishni yanada rivojlantirish talab etiladi.

Davlat moliyasini boshqarishdagi islohotlar sharoitida umumdavlat moliya tizimining bosh bo'g'ini - davlat budgetini boshqarish, budget jarayonini tashkil etish tizimidagi islohotlar, xususan, budget ijrosida kassali tizimdan jahon amaliyoti tajribasida sinovdan o'tgan va o'zining ijobiy natijalarini ko'rsata olgan budget tizimi budgetlarining g'azna ijrosiga o'tishning amalga oshirilishi davlatimiz iqtisodiy sohasidagi yutuqlaridan bo'ladi.

Hozirgi zamonaviy iqtisodiy yangiliklardan kelib chiqib aytish mumkinki, budget jarayonini samarali tashkil qilishning amaliy ishlarini g'aznachilik nazoratidan chetda tasavvur etib bo'lmaydi. Buni hattoki, zamonaviy iqtisodiyot vakillari — olimlar, iqtisodchilar, qolaversa, sohaning yetuk mutaxassislari ham asosli ravishda e'tirof etmoqdalar. Negaki, g'aznachilik tizimi budget daromadlari va xarajatlarini yagona g'azna hisobraqamiga jalb qilish, pul oqimlarini to'g'ri va samarali boshqarish, rejalashtirish, moliyaviy oqimlarning esa ilk va joriy nazoratini amalga oshirish, shu

jumladan, davlat budgetini yuqori operativlikda ijro etish imkoniyatining kengayishiga xizmat qiladi.

Davlat budgetiga chet el valyutasida tolana digan soliqlar, yigimlar va boshqa majburiy to'lovlari, shuningdek budjet tashkilotlarining chet el valyutasida tushadigan budgetdan tashqari mablag'lari, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar nazarda tutilgan bolmasa, G'aznachilikning bankdagi valyuta hisobvaraqlariga kiritiladi.

G'aznachilik yagona gazna hisobvaragidagi va G'aznachilikning boshqa bank hisobvaraqlaridagi Davlat budgeti mablag'larini ularni Davlat budgetining xarajatlarini belgilangan muddatlarda amalga oshirish uchun yonaltirish, shuningdek Davlat budgeti bosh mablag'larini bank depozitlari va boshqa aktivlarga vaqtincha joylashtirish hamda ular hisobidan respublika budgetiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetiga, mahalliy budgetga, shuningdek davlat maqsadli jamgarmalariga budget ssudalari berish yo`li bilan boshqarib boradi.

Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi G'aznachilik tomonidan, shuningdek davlat soliq va bojxona xizmati organlari, byudjet tashkilotlari hamda davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarining yagona rejasi va byudjet tasnifi asosida tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki , nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham, metodologik hamda tashkiliy jihatdan davlat byudjetining g'azna ijrosini tushunish hamda bevosita ijro etish ancha murakkab jarayondir. Ana shu jihatlar "G'aznachilik" fanining ham murakkabligini belgilab beradi. Fan sifatida mavjud bo'lishi uning boshqa maxsus fanlar bilan nazariy jihatdan bog'liqlikda bo'lishini talab etadi. Davlat byudjetining g'azna ijrosi ishtirokchilari: moliya organlari, byudjet tashkilotlari, banklar, g'aznachilik bo'linmalari, mol etkazib beruvchilar va boshqalar faoliyatining xususiyatlari uning boshqa iqtisodiy fanlar: Davlat byudjeti, Mahalliy byudjetlar, Davlat maqsadli jamg'armalari, Moliyaviy nazorat, Buxgalteriya hisobi, Moliyaviy tahlil, Audit kabi fanlar bilan mantiqan uzviylikda bo'lishini va bog'liqligini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Steven M. Bragg. "TREASURY MANAGEMENT" The Practitioner's Guide.
2. T.Eshnazarov. Davlat budgetining g'azna ijrosini rivojlantirish omillari. "Budget ijrosiga g'aznachilik tizimini joriy etishning dolzarb muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiyamaliy konferentsiya materiallari to'plami. - Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA» nashriyoti, 2011 y.
3. Shaxlo S. G'AZNACHILIK TIZIMINING JORIY QILINISHINING DAVLAT MOLIYASI TIZIMIDAGI AHAMIYATI //E Conference Zone. - 2022.-C. 1-2.

6 – TOM 10 – SON / 2023 - YIL / 15 - OKTYABR

4. Urayeva D., Nazarova G. COMPARATIVE ANALYSIS OF MYTHOLOGICAL NAMES AND MYTHOLOGISMS IN THE ENGLISH AND UZBEK LITERATURE //Philology Matters. - 2021. -T. 2021. No. 1.-C. 3-21.

5. Ivanovich, K. K. Public Debt And Its Place In The Macroeconomic Policy Of The Republic Of Uzbekistan. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 15, 157.

6. Khasiani, K., Koshima, Y., Mfombouot, A., & Singh, A. (2020). Budget execution controls to mitigate corruption risk in pandemic spending. Fiscal Affairs, 1-9.